



KDB Bank Uzbekistan

BIZNES- REJA



MOLIYAVIY YIL

2026

01

Biznes Muhit va Istiqbollar

O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollari	3
O'zbekistonning bank tizimi	4

02

Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Bank maqsadi va boshqaruv strategiyasi	5
Moliyaviy rivojlanish rejasi	6
Yillik budget rejasi & tafsilotlar	11

Biznes Muhit va Istiqbollar

O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollari

Asosiy ko'rsatkichlar 2025

- O'zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda barqaror va izchil o'sishni davom ettirdi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) yil davomida 7,7% ga oshdi.
- Inflyatsiya darajasi 2024-yildagi 9,8% ga nisbatan 2025-yilda 7,3% ga pasaydi.
- Investitsiya faoliyati sezilarli darajada ko'tarilib, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 10,5% ga oshdi.
- Mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 20,7% ga ko'tarilib, 81,2 milliard AQSh dollariga yetdi. Eksport \$33,8 milliardni, import \$47,4 milliardni va tashqi savdo balansi taqchilligi \$13,6 milliardni tashkil etdi.

Asosiy yo'nalishlar 2026¹

- 2026-yilda YaIM o'sishi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) tomonidan 6,6%, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan esa 6,0% darajada prognoz qilinmoqda. Ushbu prognozlar qo'shimcha qiymat yaratishni oshirish, mehnat unumdorligini yaxshilash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan tizimli islohotlarning davom ettirilishi bilan chambarchas bog'liqdir.
- 2026-yilda inflyatsiya darajasi IMV ga ko'ra 7,0%, XVJ ga ko'ra esa 7,3% darajada barqaror bo'lishi kutilmoqda.
- Tashqi savdo aylanmasi \$84,0 milliardni tashkil etishi kutilmoqda. Bu prognoz qulay savdo sharoitlari va davlatning eksportni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari bilan qo'llab-quvvatlanadi. Eksport hajmi \$36,6 milliardga yetishi, import esa 2025-yildagidek \$47,4 milliard miqdorda bo'lishi va natijada tashqi savdo balansi taqchilligi \$10,8 milliardgacha qisqarishi kutilmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Birlik	2023	2024	2025	2026 (P)
YaIM real o'sishi	%	6,3	6,5	7,7	5,9 – 6,6
IMV	%	-	-	-	6,6
XVJ	%	-	-	-	6,0
Nominal YaIM	\$ milliard	102,6	115,0	147,1	159,2
Inflatsiya darajasi	%	8,8	9,8	7,3	7,0 – 7,3
IMV	%	-	-	-	7,0
XVJ	%	-	-	-	7,3
Tashqi savdo aylanmasi	\$ milliard	62,5	65,9	81,2	84,0
Tovarlar eksporti	\$ milliard	24,4	26,9	33,8	36,6
Tovarlar importi	\$ milliard	38,1	39,0	47,4	47,4
Tashqi savdo balansi	\$ milliard	-13,7	-12,1	-13,6	-10,8

Ayirboshlash kurslari

UZS / USD	12,338.77	12,920.48	12,025.33
UZS / USD (o'rtacha)	11,737.16	12,652.69	12,577.35

¹Manba: IMV, XVJ

BIZNES MUHIT VA ISTIQBOLLAR

O'zbekistonning bank tizimi

Asosiy ko'rsatkichlar 2025

- 2025-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston bank sektorining jami aktivlari hajmi AQSh dollari ekvivalentida 29,2% ga o'sib, \$76,9 milliardni tashkil etdi. Shuningdek, banklarning umumiy kapitali 26,7% ga o'sib, \$11,3 milliardga yetdi.
- Yil yakunida tijorat banklari soni 35 tani tashkil etdi. Jumladan, 9 ta davlat egaligidagi banklarning jami aktivlardagi ulushi 63,5% ni va jami kapitaldagi ulushi 60,2% ni tashkil etdi.
- 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, tijorat banklarining jami aktivlari asosan kreditlar (63,5%), naqd pul va boshqa banklardagi depozitlar (16,1%), qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar (11,1%) va boshqa aktivlardan (9,3%) tashkil topgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining jami moliyalashtirish manbalari mijozlar depozitlari (45,1%), moliya institutlaridan olingan kreditlar (26,8%), obligatsiyalar (4,1%), boshqa majburiyatlar (9,4%), va kapitaldan (14,6%) tashkil topgan.
- 2025-yil yakunlariga ko'ra, KDB Bank O'zbekiston bank tizimidagi eng daromadli banklardan biri bo'ldi, hamda yuqori darajadagi aktivlar (ROA = 6,0%) va kapital rentabelligini (ROE = 31,9%) namoyon etdi.

Asosiy yo'nalishlar 2026²

- "Fitch Ratings" taqdim etgan prognozga ko'ra, 2026-yilda O'zbekiston bank tizimining moliyaviy ko'rsatkichlari mamlakatdagi iqtisodiy o'sish hisobiga barqaror bo'lishi kutilmoqda.
- Banklarni xususiyashtirish ustuvorligicha qolib, hukumat "O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq 2030-yilgacha davlat egaligidagi banklar sonini to'rttagacha kamaytirishni reja qilgan.
- Uzoq muddatli ichki moliyalashtirish cheklanganligi sababli, banklar tashqi qarzlarni jalb etishni davom ettiradi.
- Muammoli kreditlar ulushining kamayishi va dollarlashuv pasayishi hisobiga aktivlar sifati barqaror qolishi kutilmoqda.
- Kapital monandligi va likvidlilik zaxiralari yetarli darajada saqlangan holda, tartibga solish choralari kredit bozorida "qizib ketish" xavfini yumshatadi.
- Bank tizimining daromadliligi mustahkam foiz marjasi va boshqariladigan zaxira xarajatlari hisobiga yuqori bo'lishi kutilmoqda.

²Manba: "S&P Global Ratings", "Fitch Ratings"

³Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

O'zbekistonning eng yirik 20 ta banki³

2025-yil yakunlari bo'yicha

(Birlik: million AQSh dollari, %)

O'rin	Bank nomi	Aktivlar	Kapital	Sof foyda	ROA*	ROE*
1	O'zmilliybank	12,037	1,661	153	1,4%	9,9%
2	Agrobank	8,615	1,145	8	0,1%	0,7%
3	O'zsanoatqurilishbank	8,519	988	149	2,0%	17,2%
4	Asakabank	5,143	685	20	0,4%	3,1%
5	Kapitalbank	4,786	584	142	3,4%	29,2%
6	Ipotekabank	4,551	643	32	0,7%	5,3%
7	Xalq banki	4,334	883	56	1,4%	7,5%
8	Biznesni rivojlantirish banki	3,174	438	40	1,4%	10,5%
9	Hamkorbank	2,986	558	136	5,3%	28,7%
10	Aloqabank	2,622	320	20	0,9%	7,3%
11	Mikrokreditbank	2,555	477	13	0,6%	3,5%
12	Ipak yo'li banki	2,360	368	74	3,6%	23,2%
13	Turon bank	1,810	174	2	0,1%	1,2%
14	Orient finans bank	1,583	332	83	5,8%	29,5%
15	Anor bank	1,287	113	24	2,4%	25,4%
16	Invest finans bank	1,243	152	9	0,8%	7,0%
17	TBC bank	1,208	208	0	0,0%	0,0%
18	Trast bank	1,192	305	69	6,9%	26,3%
19	KDB Bank O'zbekiston	1,088	207	55	6,0%	31,9%
20	Davr bank	1,016	169	50	5,9%	36,9%

*Eslatma: Aktivlar rentabeligi (ROA) va kapital rentabeligi (ROE) ko'rsatkichlari 2025-yildagi sof foydani mos ravishda 2025-yil boshi va oxiridagi jami aktivlar va jami kapitalning o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali hisoblangan.

Biznes-Reja & Boshqaruv Strategiyasi

Bank maqsadi va boshqaruv strategiyasi

Mustahkam o'sish, tavakkalchilikni kuchli boshqarish va mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik o'rnatish bo'yicha tan olingan, xorijiy sarmoya asosida tashkil etilgan, MDH mintaqasidagi yetakchi korporativ va investitsiya bankiga aylanish

2026-yildagi asosiy vazifalar

Bankning 2026-yildagi asosiy vazifalari foydani oshirish, tavakkalchilikni boshqarish amaliyotlarini takomillashtirish, hamda aktivlar va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish orqali barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan.



Operatsion aktivlar o'sishi va diversifikatsiyasi

Ko'zlangan maqsadlar:

- o Kredit va investitsiya portfellarini barqaror o'sishiga erishish
- o Konsentratsiya xavfini kamaytirish
- o Aktivlarning yuqori sifatini saqlab qolish
- o Daromad manbalarini diversifikatsiya qilish
- o Bankning korporativ bank xizmatlari bozorida mavqeni mustahkamlash



Moliyalashtirish manbasining o'sishi va diversifikatsiyasi

Ko'zlangan maqsadlar:

- o Moliyalashtirish manbalarini mustahkamlash va diversifikatsiya qilish
- o Yirik depozitorlarga bog'liqlikni kamaytirish
- o Likvidlik profilini va barqarorligini yaxshilash
- o Moliyalashtirish xarajatlarini optimallashtirish
- o Aktivlar o'sishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish

Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Moliyaviy rivojlanish rejasi

Bankning 2026-yilga mo'ljallangan moliyaviy prognozlarini tavakkalchilikka asoslangan nazorat tamoyillariga muvofiq, global moliya bozori tendensiyalari hamda O'zbekistonning ichki iqtisodiy muhiti hisobga olingan holda tayyorlandi.

Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy ko'rsatkichlari

(Birlik: USD ming, %)

Ko'rsatkichlar	2026		2025		
	Reja (A)	O'sish ((A-C)/C)	Reja (B)	Fakt (C)	Ijro (C/B)
MOLIYAVIY HOLAT					
Jami aktivlar	1,167,920	7,4%	854,241	1,087,721	127,3%
Naqd pul, banklararo depozitlar, jumladan pul bozori va repo bitimlari	724,000	0,1%	498,961	723,108	144,9%
Kreditlar	335,000	16,5%	287,460	287,513	100,0%
Qimmatli qog'ozlar	100,112	44,3%	60,099	69,374	115,4%
Boshqa aktivlar	8,808	14,0%	7,721	7,726	100,1%
Jami majburiyatlar	913,300	3,7%	690,300	880,632	127,6%
Mijozlar depozitlari	650,000	7,5%	500,000	604,906	121,0%
Banklararo qarzlari	257,500	-0,1%	185,000	257,665	139,3%
Boshqa majburiyatlar	5,800	-67,9%	5,300	18,061	340,8%
Jami kapital	254,620	23,0%	163,941	207,089	126,3%
DAROMAD HISOBOTI					
Sof foizli daromadlar	71,562	16,5%	47,157	61,432	130,3%
Sof foizsiz daromadlar	18,460	17,3%	14,970	15,742	105,2%
Ehtimoliy yo'qotishlar uchun majburiy zaxira (Yaratilishi - / Qaytarilishi +)	(196)		(753)	96	
Sof operatsion daromad	89,825	16,2%	61,374	77,270	125,9%
Operatsion xarajatlar	(16,798)	19,1%	(15,142)	(14,109)	93,2%
Standart aktivlar bo'yicha zaxira	(457)		(1,232)	(215)	
Daromad solig'idan oldingi sof foyda	72,570	15,3%	45,000	62,947	139,9%
Sof foyda	61,684	12,3%	37,350	54,948	147,1%
Ayirboshlash kursi: UZS/USD	12,810.00	6,5%	14,327.50	12,025.33	
O'rtacha ayirboshlash kursi: UZS/USD	12,505.00	-0,6%	13,676.25	12,577.35	

Izoh: Biznes-reja rasmiy buxgalteriya standartlari asosida tayyorlandi. O'zbek so'mi O'zbekiston Respublikasining amalda qo'llanilayotgan pul birligi bo'lganligi sababli, yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar avval so'mda hisoblanib so'ngra prognoz qilingan valyuta kursi (2026-yil 31-dekabr holatiga \$1 = 12,810.00 so'm va o'rtacha ayirboshlash kursi \$1=12,505.00 so'm) ni qo'llagan holda AQSh dollarida hisoblab chiqildi.


Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha izohlar

Biznes-rejaga ko'ra, Bankning jami aktivlari 2026-yil so'ngiga kelib 1,167,9 million AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sish, bankning strategik maqsadlariga muvofiq, operatsion aktivlarning ko'payishi hisobiga ta'minlanadi. Jami majburiyatlar esa asosan mijozlar depozitlarining o'sishi hisobiga, 913,3 million AQSh dollargacha ortishi kutilmoqda.

Prognoz qilinayotgan balansdagi asosiy ijobiy o'zgarishlar:

- Operatsion aktivlarning 78,2 million AQSh dollariga o'sishi;
- Mijozlar depozitlarining 45,1 million AQSh dollariga o'sishi;
- Kapitalning 47,5 million AQSh dollariga ko'payishi.




Operatsion aktivlar o'sishi va diversifikatsiyasi

Bank yuqori sifatli kredit portfelini kengaytirish, past tavakkalchilik darajasiga ega investitsiya portfelini oshirish, hamda tarmoqlar va qarz oluvchilar kesimida konsentratsiya xavfini kamaytirish orqali operatsion aktivlarning barqaror o'sishi va diversifikatsiyasini ta'minlashni maqsad qilgan.

2026-yilda Bank operatsion aktivlarni 78,2 million AQSh dollarga (yoki dollar ekvivalentida 21,9% ga) quyidagi yo'nalishlar bo'yicha oshirishni rejalashtirmoqda:

- Korporativ mijozlar va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni 36,8 million AQSh dollariga (yoki 15,8% ga) ko'paytirish;
- Mahalliy banklarga kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida "on-lending" va savdoni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmini 10,7 million AQSh dollariga (yoki 19,7% ga) ko'paytirish;
- Qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni 30,7 million AQSh dollariga (yoki 44,3% ga) oshirish.



Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Bank o'zining operatsion aktivlarini 2026-yil oxirigacha 356,8 million AQSh dollaridan 435 million AQSh dollarigacha oshirishni maqsad qilgan. Buning uchun bank yangi qarz oluvchilarni jalb qilish, qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni oshirish va yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi.

Yangi qarz oluvchilarni jalb qilish bank uchun nafaqat kredit portfelini kengaytirish, balki undan kelib chiqadigan konsentratsiya xavfini kamaytirish maqsadida ham muhimdir. Bank marketing faoliyatini yuqori o'sish potentsialiga ega yetakchi sanoat kompaniyalari va investitsiya loyihalariga qaratadi. Davlatga tegishli yirik korporatsiyalar bilan birga, bank moliyaviy jihatdan barqaror o'rta va yirik xususiy kompaniyalarni ham (hozirgi marketing rejasining taxminan 80% ni xususiy kompaniyalar tashkil etadi) maqsad qilib oladi. 2025-yilda 40 ta bo'lgan korporativ qarz oluvchilar soni 2026-yilga kelib 45 taga yetishi, 2030-yilga kelib esa, bu ko'rsatkich 70 taga yetishi kutilmoqda.

Bank qarz oluvchilarning loyihalarini moliyalashtirishdan oldin ularning moliyaviy holatlari va biznes-rejalarini ko'rib chiqib, kredit berishda konservativ yondashuvni davom ettiradi. Jumladan, bank asosan tog'-kon, metallurgiya, energetika, transport, telekommunikatsiya, oziq-ovqat va ichimliklar, kabel mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyo, farmatsevtika, to'qimachilik, plastik buyumlar va qog'oz hamda gigiyenik mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatlaridagi moliyaviy barqaror kompaniyalarga kreditlar ajratadi.

Sindikatsiyalangan moliyalashtirish va Loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance) faoliyatlari kuchaytiriladi. Bu bankka yirik miqdordagi bitimlarda ishtirok etish, risklarni boshqarish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Qolaversa, bank ichki kapital bozorining rivojlanishini inobatga olgan holda, nafaqat Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni, balki mahalliy banklar va kompaniyalar tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni kengaytirishni rejalashtirmoqda.

Kichik biznes subyektlari va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat siyosatiga muvofiq, bank mahalliy banklar uchun "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlari hajmini ko'paytiradi.

Bankning Risk appetiti bayonoti va Kredit siyosatida bir qarz oluvchi/guruh va sanoat tarmoqlari bo'yicha kreditlarning maksimal miqdori, yirik tavakkalchiliklar bo'yicha limit, va so'nggi o'n ikki oy davomida ayni bir qarz oluvchiga ajratilishi mumkin bo'lgan kreditlarning maksimal miqdori kabi cheklovlar o'rnatilgan. Ushbu cheklovlar, kutilgan o'sish fonida, kredit portfelidagi konsentratsiya xavfini samarali ravishda kamaytirishga yordam beradi.

Bank o'zining tavakkalchilikni boshqarish strategiyasiga ko'ra, yirik tavakkalchiliklar bo'yicha limitni hozirgi 495% dan 2026-yilning oxirigacha 450% gacha, 2030-yilga kelib esa 350% gacha tushirishni maqsad qilgan.

Moliyalashtirish manbasining o'sishi va diversifikatsiyasi

Bank o'z operatsion aktivlarini qo'llab-quvvatlash, likvidlikni boshqarish va konsentratsiya xavfini kamaytirish maqsadida, barqaror, arzon va diversifikatsiyalangan moliya manbalarini yaratishni rejalashtirgan.

Mijozlar depozitlari

Bank mijozlar depozitlarini 2025-yilning oxiridagi 604,9 million AQSh dollaridan 2026-yilning oxirida 650 million AQSh dollarigacha oshirishni rejalashtirmoqda. Ushbu maqsadga erishish maqsadida Bank mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilashga, natijada barqaror depozitlar (core deposits) miqdorini mustahkamlashga katta e'tibor beradi. Shuningdek, raqobatbardosh foiz stavkalarini taklif etish orqali, AQSh dollaridagi muddatli depozitlarni jalb qilishga e'tibor qaratiladi.

Bank tizimida kuzatilayotgan yuqori foiz stavkali O'zbek so'midagi muddatli depozitlarni jalb qilish muhim hisoblanmaydi. Bank O'zbek so'midagi operatsion aktivlarni moliyalashtirishda asosan o'z kapitaliga tayanadi.

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Bank o'zining so'nggi yillardagi marketing faoliyati, jumladan kompaniyalarning birlamchi hisobvaraqlari, yirik investitsiya loyihalari bo'yicha "onshore" hisobvaraqlari, hamda chet el kapitali asosida jalb qilingan korxonalarni faol jalb qilish orqali depozit portfelidagi konsentratsiya xavfini keskin kamaytirganligi kuzatiladi. Xususan, eng yirik 1 ta, 10 ta va 20 ta korporativ depozitorlarning umumiy depozitlardagi ulushi mos ravishda 9,1%, 35,3% va 47,3% ni tashkil etdi (2024-yil 31-dekabr holatiga nisbatan 11,8%, 42,4% va 54,1%).

Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Banklararo qarz olish

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun xorijdan kreditlarni faol jalb qilishga mo'ljallangan hukumat siyosatini qo'llab-quvvatlagan holda, hamda uzoq muddatli moliya manbalarni ko'paytirish maqsadida, Bank ikki tomonlama va sindikatsiyalangan qarz olish imkoniyatlarini o'rganadi va xorijiy moliya institutlardan kredit liniyalarini bosqichma-bosqich jalb qilish va kengaytirishga e'tibor qaratadi.


Jumladan, xalqaro kapital bozorlarida korporativ obligatsiyalarni chiqarishga tayyorgarlik ko'rish doirasida, hamda moliya manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadida, Bank o'z aksiyadori KDB (Koreya)dan boshqa xorijiy moliya institutlardan 80 million AQSh dollari miqdorida uzoq muddatli qarz olishni rejalashtirmoqda.

Korporativ muddatli depozitlar va uchinchi shaxs hisoblangan xorijiy moliya institutlaridan uzoq muddatli qarzar yetarli miqdorda jalb qilinmagan taqdirda, KDB (Koreya) dan uzoq muddatli qarz olishga e'tibor qaratiladi.

Likvidlilikni boshqarish

Bank mijozlar mablag'larini tahlil qilish orqali likvidlilikni boshqarish amaliyotlarini kuchaytirishga, kutilmagan mablag'larning chiqib ketishini boshqarish uchun yetarli likvidlilik zaxiralarini saqlashga, qisqa muddatli va chet el valyutasida banklararo pul bozori operatsiyalarini kengaytirishga hamda likvidlilik bo'shliqlari va stress holatlarini nazorat qilishni kuchaytirishga e'tibor qaratadi.

Daromadlilik



Sof foizli daromad

2026-yilda sof foizli daromad 2025-yilga nisbatan 10,130 ming AQSh dollariga (yoki 16,5%) oshishi kutilmoqda, bu esa quyidagi asosiy foiz daromadlari va xarajatlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq:

- Kredit portfeli va qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar miqdorining o'sishi natijasida foizli daromadlarning ko'payishi (▲13,561 ming AQSh dollari);
- Pul bozorida joylashtirishlar va repo investitsiyalardan foizli daromadlarning ko'payishi (▲2,396 ming AQSh dollari); va
- Mijozlar depozitlarini jalb qilish xarajatlarining oshishi hisobidan foizli xarajatlarning ko'payishi (▲5,827 ming AQSh dollari).

Sof foizsiz daromad

2026-yilda sof foizsiz daromad 2025-yilga nisbatan 2,718 ming AQSh dollariga (yoki 17,3%) oshishi kutilmoqda. Xususan, savdoni moliyalashtirish, bank kafolati va sindikatsiyalangan kreditlash faoliyatini kengaytirishni (▲423 ming AQSh dollar), valyuta ayirboshlash operatsiyalarini oshirishni (▲1,355 ming AQSh dollar), va tranzaksion bank xizmatlari va karta biznesini (▲931 ming AQSh dollar) yanada rivojlantirishni rejalashtirmoqda.

Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Operatsion xarajatlar

Bankning operatsion xarajatlari 2026-yilda 2,689 ming AQSh dollariga (yoki 19,1%) o'sishi va 16,798 ming AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. *(Batafsil malumot "Yillik budjet rejasi va tafsilotlar" bo'limida berilgan.)*

*Garchi operatsion xarajatlar uchun 19,512 ming AQSh dollar miqdorida budjet ajratilgan bo'lsada, so'nggi yillardagi kuzatishlarga asoslanib, operatsion xarajatlarning yil oxiridagi miqdori 16,798 ming AQSh dollar atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Soliq to'langunga qadar sof foyda

Sof foizli daromad, sof foizsiz daromad, operatsion xarajatlar, kredit yo'qotishlari uchun maxsus zaxiralar va standard aktivlar uchun zaxiralar bo'yicha kutilmalarni hisobga olgan holda, Bankning soliq to'langunga qadar sof foydasi 2026-yil uchun 72,570 ming AQSh dollari tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish

Bank o'zining mahsulot takliflarini kengaytirish va diversifikatsiyalashni davom ettirishni maqsad qilgan. Bu esa mijozlarning o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, raqobatbardoshlikni oshirish va foizsiz daromadlar ulushini ko'paytirishga yordam beradi.

2026-yilda Bank quyidagi mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi:

Islom moliyasi

Bank Shariat qoidalari asosidagi moliyaviy yechimlarga talabning o'sishini inobatga olgan holda, Islom moliyasini joriy etish imkoniyatlarini o'rganadi.

Faktoring

Bank korporativ mijozlarning aylanma mablag'larini boshqarish va ularning likvidligini oshirishga yordam berish maqsadida faktoring xizmatlarini rivojlantirishni rejalashtirmoqda. Ushbu mahsulot ayniqsa tezroq pul aylanish siklini talab qiladigan yetkazib beruvchilar va eksportchilarga mos keladi.

Sindikatsiyalangan kreditni moliyalashtirish

Bank sindikatsiyalangan kredit tranzaksiyalarida ishtirokini kengaytirishni, ishtirokchi sifatida va kerak bo'lganda tashkilotchilik vazifasini bajarishni rejalashtirmoqda. Bu bankka risklarni diversifikatsiya qilish va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance)

Bank loyihaviy moliyalashtirish sohasidagi imkoniyatlarni o'rganadi, ayniqsa iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida yirik hajmdagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yechimlariga e'tibor qaratadi.

Tranzaksion bank xizmatlari mahsulotlari

Ichki bozordagi joriy talabni inobatga olgan holda, bank korporativ va jismoniy mijozlar uchun xavfsiz, shaffof va arzon to'lov mexanizmlarini ta'minlash maqsadida tranzaksion bank xizmatlari mahsulotlarini (masalan, eskrou hisobvaraqlari xizmatlari) joriy etish va targ'ib qilishni rejalashtirmoqda.

Kreditlarni narxlash tizimini takomillashtirish

2026-yilda Bank o'zining kreditlarni narxlash tizimini takomillashtirishni va Resurslarning transfert narxi (FTP – Fund Transfer Pricing) tizimini rivojlantirishni maqsad qilgan. Bu narxlash va rentabellikni boshqarishda yanada aniqroq, riskka asoslangan va shaffof yondashuvni ta'minlashga yordam beradi.

Bank aktivlar rentabelligini va likvidlikni boshqarishda, hamda aktivlar va majburiyatlar boshqaruvi (AMB) sohasidagi qarorlarini yanada takomillashtirishda Resurslarning transfert narxi tizimini asosiy vositalardan biri sifatida joriy etadi.

Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Yillik budjet rejasi va tafsilotlar

Operatsion xarajatlar budjeti

Asosan kiberxavfsizlik, axborot texnologiyalari (AT) tizimi, bank kartalari biznesi va avtomatlashtirilgan bank tizimidagi takomillashtirishlar hisobiga, o'tgan yilgi amaldagi operatsion xarajatlarga nisbatan, 2026-yilda Bankning operatsion xarajatlari uchun yillik budjet miqdori, konservativ ravishda, 5,403 ming AQSh dollariga (yoki 38,3%) oshadi, deb belgilanmoqda.

Xususan, Bank o'zining amaldagi avtomatlashtirilgan bank tizimi – "Unibanks"ni takomillashtirish (yoki umuman yangi tizimga o'tish) loyihasini amalga oshiradi. Bunda, dastlabki bosqichda amaldagi axborotlashtirilgan bank tizimi audit qilinadi, uning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, ushbu loyihaga dahldor inson resurslarining salohiyati baholanadi va ish rejasi ishlab chiqiladi.

(Birlik: UZS million, USD ming)

Ko'rsatkichlar	Budjet 2026		Fakt 2025		O'zgarish (USD)		Izohlar
	UZS	USD	UZS	USD	Miqdor	%	
Ish haqi va xodimlarga xarajatlar	152,282	12,178	124,803	9,923	2,255	22,7%	Mahalliy va chet el xodimlar uchun ish haqi va boshqa xarajatlar
Ijara va xizmat ko'rsatish xarajatlari	37,004	2,959	16,274	1,294	1,665	128,7%	AT dasturlari va litsenziyalari, bino xavfsizligi, kommunal xizmatlar, ta'mirlash va boshqa xizmatlar bo'yicha to'lovlar
Safar va transport xarajatlari	1,807	145	1,513	121	24	20,1%	Xizmat safari, yoqilg'i xarajatlari
Ma'muriy xarajatlar	9,265	741	4,814	383	358	93,5%	Aloqa, kanselyariya buyumlari, davriy nashrlar uchun xarajatlar
Vakillik xarajatlari va a'zolik badallari	12,126	970	10,683	849	121	14,2%	Depozitlarni kafolatlash fondiga a'zolik to'lovi, vakillik, xayriya va tadbirlarga xarajatlar
Amortizatsiya	22,400	1,790	13,596	1,081	709	65,7%	Moddiy va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya xarajatlari
Boshqa xarajatlar	6,617	529	5,514	438	91	20,7%	Sug'urta, audit, yuridik maslahatlar va boshqa konsultatsiyalar, Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolariga to'lovlar, soliqlar (daromad solig'i bundan mustasno)
Kutilmagan xarajatlar uchun zaxira	2,501	200	253	20	180	-	Kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira
JAMI	244,002	19,512	177,450	14,109	5,403	38,3%	
<i>O'rtacha ayirboshlash kursi</i>	12,505.00		12,577.35				

Biznes-Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Yillik budjet rejasi & tafsilotlar

Kapital xarajatlar budjeti

(Birlik: USD ming)

#	Asosiy xarajatlar	Budjet 2026
	AT sohasini takomillashtirish	8,465
1	- AT infratuzilmasi va kiberxavfsizlikni takomillashtirish	6,215
	- AT rivojlantirish (shu jumladan, Raqamli bank yechimlari)	2,250
2	Bank kartalari biznesi	1,140
	Ma'muriy xarajatlar	630
3	- Bosh ofis	580
	- Oybek filiali	50
	JAMI	10,235

AT sohasini takomillashtirish

2026-yilda Bank o'zining AT infratuzilmasi, kiberxavfsizlik va raqamli salohiyatini oshirish uchun jami 8,465 ming AQSh dollari miqdorida kapital xarajatlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Xususan, ma'lumotlarni qayta tiklash zaxira markazini yangilash uchun 2,850 ming AQSh dollari, avtomatlashtirilgan bank tizimini yangilash bo'yicha talablarni aniqlash (ikkinchi bosqich) uchun 2,000 ming AQSh dollari, boshqa AT uskunalar, dasturlar, litsenziyalar va xizmatlarni sotib olish uchun 3,615 ming AQSh dollari sarflanishi rejalashtirilgan.

Bank kartalari biznesi

2026-yilda bank kartalari biznesini yanada rivojlantirish uchun jami 1,140 ming AQSh dollarini sarflash rejalashtirilgan, xususan yangi bankomatlar va savdo terminallari sotib olish uchun 400 ming AQSh dollari, "VISA Processing Center" loyahasini yakunlash uchun 640 ming AQSh dollari, va boshqa maqsadlar uchun 100 ming AQSh dollari ajratilgan.

Ma'muriy ishlar (transport vositalari, mebel, jihozlar, qayta ta'mirlash ishlari va boshqalar)

2026-yilda Bank yangi transport vositalari, mebel va jihozlarni sotib olish, shuningdek, binolarni qayta ta'mirlash uchun 630 ming AQSh dollari sarflashni rejalashtirmoqda (shundan 580 ming AQSh dollari Bosh ofis, 50 ming AQSh dollari esa Oybek filiali uchun ajratilgan).